



YURAK QON TOMIR TIZIMI MUAMMOLARI: YANGI TADQIQOTLAR VA DAVOLASH USULLARI

Nazirjonov Nazirjon Jamoliddino'gli

Central Asian Medical University 2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15244177>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-Aprel 2025 yil

Ma'qullandi: 15- Aprel 2025 yil

Nashr qilindi: 19-Aprel 2025 yil

KEYWORDS

Gipertoniya, spazm, xolestrin,
gemorragik, menopauza,
dopplerografiya, gen terapiyasi,
hujayra terapiyasi.

ABSTRACT

Bu maqolani yozishdan maqsad qon aylanish tizimi kasalligini oldini olish kelib chiqish sabablarini o'rganish belgilarini bilib oldini olish dori vositalari bilan davolash va tabiiy o'simliklar bilan kasallikni yengish.

Dolzarbliqi. Qon aylanish tizimi inson organizmining eng muhim qismlaridan biri bo'lib, uning normal ishlashini ta'minlash salomatlikni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Biroq, qon aylanish tizimining buzilishi bir qator jiddiy kasalliklarga olib kelishi mumkin, masalan, ateroskleroz, gipertoniya, yurak kasalliklari va venoz yetishmovchiligiga olib keladi. Bu muammolarni davolash va oldini olish bo'yicha so'nggi yillardagi tadqiqotlar va innovatsion yondashuvlar yuqori samaradorlikka ega bo'lmoqda.

Qon bosimi oshishi yoxud gipertoniya — bugungi kunda yurak-tomir tizimining eng keng tarqalgan kasalliklaridan biri hisoblanadi. Kasallik arterial qon bosimining ko'tarilishi bilan namoyon bo'ladi va ko'pincha uning ko'rsatkichi 140/90 dan oshib ketadi. Yurak-tomir kasalliklari sohasidagi ko'plab ekspertlarning fikricha, gipertoniya ko'pincha qon aylanishi buzilishlari natijasida sodir bo'ladi. Yurak yetishmovchiligi ham uning sababchilari ro'yxatiga kiradi. Mazkur kasallik bemorlarda ikkilamchi kasalliklar rivojlanishiga turtki bo'lishi mumkin, masalan insult, yurak xuruji.

Yuqori arterial qon bosimi qon tomirlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ular qisqa vaqt davomida birdan torayadi. Juda kuchli bosimda esa ba'zi qon tomirlar bardosh bera olmay yoriladi ichki qon ketish kuzatiladi. Gemorragik infarkt elastikligi yo'qolgan va sinuvchanlikka moyil bo'lgan tomirlar joylashgan a'zolarida sodir bo'ladi.

Nazariy asoslar. Gipertoniya qon tomirlarning nerv-funksional faoliyati buzilishi natijasida kelib chiqadigan kasallikdir. Kasallik asosan 40 yoshdan kattalarda uchraydi, lekin so'nggi yillarda yoshlarda ham tez-tez kuzatilishi qayd qilinmoqda. Gipertoniya ayollar ham, erkaklar ham bir xil aziyat chekishadi. Bu kasallik yurak-qon tomir tizimi kasalliklari bilan kasallangan odamlar. Ichida etak cho'lim sabablaridan hisoblanadi.

Gipertoniyaning asosiy alomati — bu miya tomirlarining spazmi va torayishi tufayli bosh og'rig'idir. Shuningdek, ko'pincha quloqlarda shovqin, ko'rish o'tkirligining susayishi holsizlik, uyquning buzilishi, bosh aylanishi, boshda og'irlik hissi, yurak urishining tezlashishi

bilan namoyon bo'ladi. Bu alomatlar kasallikning erta bosqichida seziladi. Keyinchalik yurakning uzoq vaqt davomida zo'riqib ishlashi tufayli yurak yetishmovchiligi yuzaga keladi.

Bundan tashqari, ko'plab bemorlarda quyidagi belgilar uchraydi:

- Osonlikcha burun qonashi
- Qayt qilish;
- Uyqusizlik;
- Xotiralarning buzilishi;
- Har qanday jismoniy faollikdan so'ng teri yuzasining qizarishi;
- Ko'zdagi kuchli bosim (bemor atrofga qaraganda ko'zlarda og'riq paydo bo'ladi, shuning uchun ular dam olishni va ko'zlarini yopiq tutishni afzal ko'rishadi);
- Yurakning tez urishi;
- To'qimalarda shishlar paydo bo'lishi;
- Charchoq.

Kasallikning rivojlanish sababi uzoq vaqt davomida stress va tushkunlik holatida yurish, tez-tez psixologik zo'riqshlardir. Ko'pincha bularni doimiy emotsional taranglikni talab etadigan ish faoliyati keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, miya chayqalishiga uchragan bemorlarda ham kasallik rivojlanishi xavfi yuqori bo'ladi. Irsiy moyillik ham sabablar qatorida: agar kishining avlodida bu kasallik uchragan bo'lsa, unda ham ushbu kasallik rivojlanishi xavfi bir necha barobarga ortadi.

Kasallik rivojlanishiga ta'sir o'tkazuvchi omillardan asosiysi — bu kamharakat turmush tarzidir. Yosh o'tib borgani sari insonlarda ateroskleroz rivojlanishi mumkin, bu o'zgarish fonida qon bosimining oshishi esa vaziyatni yanada jiddiylashtirib yuboradi. Bu hayot uchun o'ta xavfli hisoblanadi, chunki toraygan qon tomirlar orqali miya, yurak, buyraklarning bir qismiga qonning bormay qolishi yoki yetarli bormasligi kuzatiladi. Agar qon tomir devorlarida tromb va xolesterin to'planmalari bo'lsa, ular kuchli bosim vaqtida ajralib, kapillyar qon tomirlarda tiqilib, qon o'tishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Bu holda miokard infarkti yoki insult yuzaga keladi.

Ayollarda qon bosimi oshishiga sabab menopauza davridagi gormonal o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Tuz, yoki aniqrog'i, unda mavjud natriy, shuningdek chekish, alkogolli ichimliklarni suiste'mol qilish, semizlik ham yurak-tomir tizimiga bosim o'tkazadi.

Umumiylashtirib olganda, gipertoniya rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar quyidagilardan iborat:

- Ortiqcha vazn, metabolik kasalliklar, endokrin kasalliklar, kamharakat turmush tarzi;
- Muntazam emotsional stresslar, ruhiy tushkunlik, fojeali voqealarni boshdan o'tkazish, yaqin insonlarni yo'qotish;
- Biznesdagi, ishdagi muammolar tufayli kuchli asabiy taranglik;
- Qon tomirlarida yosh bilan bog'liq o'zgarishlar;
- Qonda xolesterin miqdorining yuqori bo'lishi, natijada qon tomir devorlarida to'planmalar hosil bo'ladi;
- Menopauza davrida bo'lgan, 40 yoshdan o'tgan ayollar (organizmning muhim gormonal o'zgarishlari paytida ko'pincha yashirin kasalliklar rivojlana boshlaydi va ular gipertoniya rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin);

- Zararli odatlar (chekish, alkogolli ichimliklar ichish, me'yordan ortiq qahva iste'mol qilish);
- Kun davomida ko'p miqdorda tuz iste'mol qilish;
- Qonda adrenalinning oshirish;
- Kompyuter qarshisida uzoq vaqt o'tirish;
- Ochiq havoda kam yurish va hokazo kelib chiqish sabablari hisoblanadi.

Bugungi kunda qon aylanish tizimi kasalliklarini erta bosqichda aniqlash uchun yangi diagnostik metodlar ishlab chiqilmoqda. Ulardan biri — ultratovushli dopplerografiya, bu usul yordamida qon tomirlaridagi qon oqimi va aterosklerotik o'zgarishlar tezda aniqlanishi mumkin. Ushbu texnologiya orqali qon tomirlarining holati va tomirlarda xolesterin yig'ilishini kuzatib borish mumkin, bu esa bemorni erta davolash imkonini beradi. Shuningdek, yangi laboratoriya tahlillari orqali qonning mikroelementlar darajasi, xolesterin miqdori va koagulyatsiya holati kabi ko'rsatkichlarni aniqlash mumkin. Bu metodlar kasalliklarni aniqlashni aniqroq va tezroq amalga oshirishga yordam beradi.

Yangi davolash metodlari sohasida juda katta yutuqlar mavjud. Eng innovatsion yondashuvlardan biri — gen terapiyasi va hujayra terapiyasi usuli hisoblanadi. Ushbu usullar orqali qon aylanish tizimining zarar ko'rgan qismlarini tiklash uchun organizmga maxsus genlar kiritiladi. Masalan, stvol hujayralari yordamida qon tomirlarini tiklash, yangi tomirlar hosil qilish va yallig'lanish jarayonlarini kamaytirish mumkin. Bundan tashqari, nanotexnologiyalar orqali maxsus mikro-kapsulalar yordamida dori vositalari bevosita zararlangan hujayralarga yetkaziladi. Bu metodni qo'llash orqali dori vositalarining samaradorligi oshadi va nojo'ya ta'sirlar kamayadi.

Xulosa. Qon aylanish tizimi muammolarini davolash va oldini olish sohasidagi yangi tadqiqotlar va innovatsion usullar sog'liqni saqlash tizimida katta o'zgarishlarga olib kelmoqda. Yangi diagnostika va davolash yondashuvlari, shu jumladan gen va hujayra terapiyalari, nanotexnologiyalar va yangi dori-darmonlar nafaqat bemorlarning salomatligini yaxshilashga, balki ushbu kasalliklarni erta bosqichlarda aniqlashga imkon yaratmoqda. Shuningdek, profilaktik choralar orqali sog'lom turmush tarzini amalga oshirish qon aylanish tizimining samarali faoliyatini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

References:

1. American Heart Association. (2021). About the Cardiovascular System. Retrieved from <https://www.heart.org/en/health-topics/cardiovascular-disease/about-the-cardiovascularsystem>
2. National Institute of Health. (2021). Cardiovascular System.
3. Mayo Clinic. (2021). Cardiovascular System: How It Works.
4. Harvard Health Publishing. (2021). The Cardiovascular System: Anatomy, Physiology, and Function.
5. Asadova, A., & Eshkaraev, S. (2024). YURAKDA UCHRAYDIGAN KASALLIKLAR, ULARNI OLDINI OLIH VA DAVOLASH USULLARI. *Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice*, 2(11), 20-26. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/mpttp/article/view/59646>
6. Parpiyeva, O. R., Nazarova, D., Ro'ziboyeva, O., & Jumaboyeva, M. (2024). SALOMATLIK-OLIV QADRIYAT SIFATIDA. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(27), 79-81.

7. Parpiyeva, O. R., & Ro'ziboyeva, O. (2024). GIPERTONIYA KASALLIGI VA UNI OLDINI OLISHDA OVQATLANISH TARTIBI. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(12), 86-89.
8. Parpiyeva, O. R., & Ostanaqulov, A. D. (2019). Health theory. Форум молодых ученых, (6 (34)), 26-28.

